

# “Intellectual mulk va mualliflik huquqlarini himoya qilishning muhim jihatlari” mavzusida onlayn ochiq dars tashkil etildi



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi hamda London Goldsmiths universiteti bilan hamkorlikda “Intellectual mulk va mualliflik huquqlarini himoya qilishning muhim jihatlari” mavzusida onlayn ochiq dars tashkil etildi.



Onlayn ochiq darsning asosiy maqsadi – O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida “Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish” ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga “Madaniyat va san‘at sohasida kreativ tadbirkorlik” fani kiritilgan bo‘lib, talabalar uchun intellektual mulk va mualliflik huquqini himoya qilish sohasida ma‘lumotlar berish hamda bu yo‘nalishda Buyuk Britaniya tajribasi bilan tanishtirish, xorijlik mutaxassis bilan aloqa o‘rnatish, madaniyat va san‘at sohasida mualliflik huquqini himoya qilish bo‘yicha O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha ma‘lumotlar berishdir.

**ОБЗОР**

- Для данного разговора вам необходима хорошая подготовка в области авторского права и бизнес моделей
- Рекомендую:
  - 2б Бизнес модели в индустриях креативных цифровых медиа
  - 2с Бизнес модели и авторское право

Goldsmiths

Participants: 16

Chat

Демонстрация экрана

Звонок

Перевод

Режим

Выход

Onlayn ochiq darsda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori S.Jumayev, o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.Ismoilov, o‘quv bo‘limi boshlig‘i A.O‘rozov, o‘quv bo‘limi xodimlari, Xalqaro bo‘lim boshlig‘i, institut ilmiy kotibi, “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” kafedrasi professor-o‘qituvchilari, Britaniya Kengashining O‘zbekistondagi vakolatxonasi direktori o‘rinbosari J.Gulyamova, London Goldsmiths universiteti huzuridagi Madaniy va kreativ tadbirkorlik instituti direktori G.Lidstone, institut doktori Nikol Searle, Madaniyat vazirligi huzuridagi San’atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish Palatasi boshqaruv raisi B.Toshev, Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi eksperti SH. Abdumalikov, talabalar, magistrlar va ilmiy tadqiqotchilar ishtirok etishdi.



Onlayn ochiq darsda doktor Nikol xonim iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda intellektual mulk va mualliflik huquqini rivojiga katta e'tibor qaratilishi sabablari, ularning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashdagi muhim jihata, hamda uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini oshishidagi o'rni haqida ma'ruza qildi.



Vebinarda ishtirokchilar intellektual mulk va mualliflik

huquqini muhofaza qilish borasida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Ishtirokchilar o'zlari qiziqtirgan bir qator savollarga javoblar oldilar.

**Matbuot kotibi**